ADABIY XOTIRA SILSILASI VA KO‘NGIL HAMDARDLIGI
(Ahmad Tabibiyning Zebunisobegim g‘azaliga bog‘lagan muxammasi talqini)

Raximova Saboxat Raxmonqulovna,
O‘zbekiston Milliy Universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
G-mail: saboxatraximova1975@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xiva adabiy muhitining yetakchi namoyandalaridan biri Ahmad Tabibiyning temuriy malika Zebunisobegim forsiy g‘azaliga bog‘lagan muxammasi adabiy ta’sir, badiiy xotira va ko‘ngil hamdardligi konsepsiyasiga ko‘ra tadqiq etilgan. Maqolada klassik she’riyatdagi zullisonaynlik (ikki tilda ijod qilish) an’anasi, ikki buyuk ijodkor o‘rtasidagi zamonlar osha kechgan ma’naviy muloqot va inson ruhiyatining tasviri tahlil qilinadi. Muxammasning har bir bandi shakily va ma’naviy jihatdan tahlil qilinib, shoirning insoniy iztirob, sabr, riyo tanqidi va “bozori husn” falsafasini yoritishdagi o‘ziga xos mahorati va original lirik kashfiyotlari (masalan, “nofi ohu” tashbehi) ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar:*Ahmad Tabibiy, Zebunisobegim, Xiva adabiy muhiti, muxammas, adabiy xotira, ko‘ngil hamdardligi, zullisonaynlik, tasavvufiy qarash, riyo tanqidi, “nofi ohu”, “bozori husn”.*

Аннотация. *В данной статье исследуется мухаммас Ахмада Табиби, выдающегося представителя Хивинской литературной среды, написанный на персидскую газель тимуридской принцессы Зебунисобегим, сквозь призму концепций литературного влияния, художественной памяти и душевного сопереживания. В работе анализируются традиции двуязычия (зулл исонайн) в классической поэзии, духовный диалог между двумя великими творцами сквозь века и глубина изображения человеческой психологии. Каждая строфа мухаммаса подвергается текстовому и семантическому анализу, раскрывающему уникальное мастерство поэта в отражении человеческих страданий, терпения, критики лицемерия и философии “рынка красоты” (бозори хусн), а также его оригинальные лирические открытия (например, метафора «нофи оху»).*

Ключевые слова: *Ахмад Табиби, Зебунисобегим, Хивинская литературная среда, мухаммас, литературная память, душевное сопереживание, двуязычие, суфийская грусть, критика лицемерия, “нофи оху”, рынок красоты.*

Abstract. *This article explores the mukhammas composed by Ahmad Tabibiy, a prominent figure of the Khiva literary environment, based on the Persian ghazal of the Timurid princess Zebunisobegim, through the prism of literary influence, artistic memory, and emotional empathy. The study analyzes the tradition of bilingualism (zulbisonayn) in classical poetry, the spiritual dialogue between two great creators across centuries, and the depth of psychological depiction. Each stanza of the mukhammas is subjected to textual and semantic analysis, revealing the poet's unique mastery in portraying human suffering, patience, the critique of hypocrisy, and the philosophy of the "market of beauty" (bozori husn), as well as his original lyrical discoveries (such as the “nofi ohu” metaphor).*

Keywords: *Ahmad Tabibiy, Zebunisobegim, Khiva literary environment, mukhammas, literary memory, emotional empathy, bilingualism, Sufi melancholy, critique of hypocrisy, nofi ohu, market of beauty*

Kirish. Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” sida shunday satrlar bor:

Ko‘p oliy qasrlar bo‘lurlar xarob,
Urub qoru yomg‘ir, shamol-u oftob,
Vale she’rdan bu binoyi jahon,
Uni darz etolmas shamol-u bo‘ron.

Darhaqiqat, zamonlar o‘tadi, biroq so‘z, uning nazmiy ifodasi bo‘lgan she’r davrlar osha yashab kelaveradi. Bu davomiylikning sababi bizgacha yetib kelgan ana shu mo‘tabar zotlar asarlari jamlangan kitoblardir. Qadimiy qo‘lyozma, toshbosma va nashriy asarlarning bizgacha yetib kelishida esa, tabiiyki, kutubxonaning ahamiyati juda katta. Demak, ajdodlar va avlodlar ma’naviy silsilasini bog‘lab turuvchi asosiy vosita bu

kutubxonalardir. Ana shu uzviylikni izchil ravishda davomiy rivojlantirib borish, ajdodlar an'analariga sodiq qolishga, ulardan tajriba o'rganishga undaydi.

Adabiyotlar tahlili. Ahmad Tabibiy va Zebunisobegim ijodi o'zbek adabiyotshunosligida turli jihatlardan tadqiq etilgan. Zebunisobegimning hayoti va she'riy merosi uning "Devon"i hamda Turg'un Fayziyevning *"Temuriy malikalar"* asarida yoritilgan. Ahmad Tabibiy ijodi haqida ma'lumotlar *"Majmuai shoironi Tabibiy"* va Hasanmurod Lafasiyning *"Xiva shoir va adiblari"* tazkirasida uchraydi. Xiva adabiy muhitining o'ziga xos xususiyatlari A. Erkinov tadqiqotlarida o'rganilgan. N. Jumaxo'janing taxmis janriga bag'ishlangan monografiyasi esa muxammasning nazariy asoslarini yoritadi. Biroq Tabibiyning Zebunisobegim g'azaliga bog'lagan muxammasi adabiy xotira va ko'ngil hamdardligi nuqtayi nazaridan alohida tadqiq etilmagan. Mazkur maqola aynan shu jihatni ochib berishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tipologik, tarixiy-adabiy, matniy tahlil va hermenevtik talqin metodlaridan foydalanildi. Ahmad Tabibiyning Zebunisobegim g'azaliga bog'lagan muxammasi asl g'azal bilan qiyosiy o'rganilib, ular o'rtasidagi mazmuniy va badiiy mushtaraklik hamda ijodiy yangiliklar aniqlandi. Asardagi poetik obrazlar, tasvir vositalari va tasavvufiy qarashlar matniy tahlil asosida sharhlandi. Shuningdek, muxammas "adabiy xotira" va "ko'ngil hamdardligi" konsepsiyalari doirasida talqin qilinib, ikki ijodkor o'rtasidagi ma'naviy-estetik bog'liqlik ochib berildi.

Tahlillar va natijalar. Adabiy ta'sir asosan muxammaslar (taxmis bog'lash), tazmin, tatabbu', tarji'band kabi klassik janrlarda namoyon bo'ladi. Ya'ni, biror shoir o'zidan oldin o'tgan shoir asarini, albatta kitob vositasida va uni yetkazib berayotgan kutubxona vositasida o'qir ekan, shuning ta'sirida biror muxammas yaratishi adabiyotshunoslikda keng tarqalgan lirik hodisadir. Ana shu lirik hodisa hozirgacha davom etmoqda va shu sababdan klassik adabiyotimizdagi go'zal, ta'sirchan g'azallarga mos muxammaslar bitilmoqda. Quyida ana shunday muxammaslardan biri-Boburiylar sulolasining vakilasi Zebunisobegimning o'z sharhi holida yozgan g'azaliga bog'langan Ahmad Tabibiy muxammasini tahlil qilamiz.

Tarixchi olim Turg'un Fayzievning "Temuriy malikalar" kitobida Zebunisobegimning hayoti haqida to'liq ma'lumotlar keltiriladi. Ushbu ma'lumotlardan ma'lumki, saroy malikasi bo'lishiga qaramay, Zebunisoning hayot yo'li silliq kechmagan; u taqdirning keskin burilishlari, yaqinlarining fojiasi va yolg'izlik iztiroblari ichida yashagan. Uning she'riyatidagi o'sha mahzun, so'fiylik anduhi bilan yo'g'rilgan ohanglar ana shu hayotiy dramaning hosilasidir. Oradan qariyb ikki asr o'tib, Xiva adabiy muhitining peshqadam shoiri Ahmad Tabibiy kutubxona javonlaridagi o'sha sarguzashtli bitiklarni, aniqrog'i Zebunisoning dardi dunyoga sig'magan damlarda bitgan forsiy g'azalini o'qir ekan, uning qalbida shoiraga nisbatan cheksiz ehtirom va insoniy hamdardlik tuyg'usi bosh ko'targan bo'lsa ajabmas.

Shoira Zebunisobegim haqida doim so'z ketganda, uning turmush qurmagani va hayotdan toq o'tgani haqida aytiladi. Uning:

Anis va dildor-u munis-u yoram kitobast,
Hamesha dar koni g'am g'amgusoram kitobast.
Zunor-u hamdam nadoram dar in kunji g'am,

Ba g‘ayr az soya, digar yoram kitobast, misralari yuqoridagi fikrimizni dalillaydi.

Yuqorida ta’kidlaganimiz, Zebunisobegimning sharhi hol g‘azaliga Tabibiy quyidagicha muxammas bog‘lagan:

Gum shavad on dil, ki bo vasl talabgoriy nashud,
So‘xtan beh tan, ki bo kulfat giriftoriy nashud,
Xasta bod on jon, ki bo anduh duchoriy nasho‘d,
Dur bod az tan sare, ki oroyish doriy nasho‘d,
Beshkanad daste, ki xam dar gardani yoriy nasho‘d.

Mumtoz Sharq she’riyatida ayol ijodkorlar qismati, xususan, Zebuniso kabi hayoti cheklovlar, sadoqatsizliklar va shaxsiy erkinlikning bo‘g‘ilishi bilan o‘tgan malikalarning dardi ko‘p hollarda erkak shoirlar tomonidan ramziy ma’noda o‘rganilgan. Tabibiy esa ramzlardan chuqurroq kirib boradi va shoiraning matni ortida turgan insoniy fojiani, yolg‘izlikni va eng muhimi, ma’naviy tushunilmaslik dardini ilg‘aydi. Shoir o‘z muxammasida ushbu dardga darmon bo‘lishga, zamonlar va makonlar silsilasini buzib, shoira yonida turib yig‘lashga, unga hamdardlik bildirishga intiladi.

Tobakay az bahri dunyo mekuni jo‘shu xo‘rush,
Sa’yho karda to‘ ham aknun bar ohi ishq go‘sh,
Borho dar kunji mayxona mayi gulfom no‘sh,
Dar nazar shohid nadoriy diyda az olam bapo‘sh,
Ko‘r beh chashme, ki lazzatgiri dildoriy nasho‘d.

Tabibiy muxammasni inson nafsiga, uning o‘tkinchi dunyo uchun qilayotgan behuda harakatlariga qarshi isyon bilan boshlaydi. “Ey dil, qachongacha bu dunyo dengizi, uning moddiy boyliklari uchun tinmay g‘alayon qilasan, baqir-chaqir qilasan?” misrasida shoir “bahri dunyo” ko‘chimini keltirmoqda. Dunyo shunday bir dengizki, uning tubi yo‘q va uning girdobiga tushgan odam ma’naviyatdan uzoqlashadi. Shoir inson ko‘nglini sadoqat yo‘liga chorlash uchun ikkinchi misrada dialogni davom ettiradi. “Sa’yho karda to‘ ham aknun bar ohi ishq go‘sh (Endi sen ham bor sa’y-harakatingni ishq yo‘liga qarat, uning ovoziga quloq sol”.

Uchinchi misrada mumtoz adabiyotimizning yetakchi ramzlaridan biri — kunji mayxona (mayxona burchagi) va mayi gulfom (gulfom, qizil rangli sharoib) tasviri kirib keladi. Bu yerda Tabibiy tasavvufiy ramzlarni yangilaydi: mayxona — haqiqiy oshiqlar to‘planadigan, riyodan xoli makon, may esa ilohiy ma’rifatdir. Shoir insonga dunyo bozoridan qochib, mayxona burchagida Haq ma’rifatidan sipqorishni taklif etmoqda.

“Kimningki ko‘zi dildorning, ya’ni Yaratganning vaslidan, go‘zalligidan lazzat olmas ekan, u ko‘zning ochiq turganidan ko‘ra ko‘r bo‘lgani afzaldir” (Ko‘r beh chashme...). Tabibiy bu yerda inson ko‘nglining haqiqiy vazifasi faqat dunyoni ko‘rish emas, balki ma’naviy go‘zallikni his qilish ekanini ta’kidlab, shoira fikriga birinchi hamdardlik ohangini kiritadi.

Navbatdagi bandda esa Tabibiy ijtimoiy muhit va lirik qahramon o‘rtasidagi ziddiyatni tazod san’ati orqali ifoda etadi.

Jumla kas bo dilbari xo‘d domani sahro gereft,
Dar fazoyi guliston bahri tarab mavo gereft,
Nash’ayi asrori ishq az sog‘ari sahbo gereft,

Sad bahor oxir sho‘d, har gul bafarqi jo gereft,
G‘unchayi dog‘i dil mo zebi dastoriy nasho‘d.

“Hamma o‘z sevgilisi bilan sahro etaklarini tutdi, u yerda sayr qilib yuribdi” misrasi va undan keyingi gulistondagi quvonch, shodlik baxtiyorlik-tanosubni vujudga keltirgan. Insonlar “sog‘ari sahbo” (sharob qadahi) orqali ishq sirlaridan mast bo‘lmoqdalar. Bu yerda Tabibiy atrofdagi quvonchni, yorug‘likni tasvirlash orqali insonning ichki tanholigini yanada bo‘rttirib ko‘rsatish yo‘lidan boradi.

To‘rtinchi va beshinchi misralarda esa Zebunisoning falsafiy xulosasi keladi. Ya’ni u: “Yuzlab bahorlar o‘tib ketadi, bu dunyoda hamma gullar ochilib, kimlarningdir boshiga, sallasiga sadoqat bezak bo‘lib joylashadi. Ammo bizning qalbimizdagi dog‘ g‘unchasi hech qachon u dastorga zeb bo‘lmadi, ya’ni bizning dardimizni, qalb jarohatimizni bu dunyoda hech kim tushunmadi, qadrlamadi”, deydi.

Tabibiy bu yerda shoira ko‘nglini shunday anglaydiki, uning bu dunyodagi tanholigini, “hamma xursand bo‘lgan, sayr qilib yurgan dunyoda nega faqat men g‘amginman?” degan savolini tushunadi va o‘zining dastlabki uch satrida odamlarning o‘sha quvonchini tasvirlab berish orqali shoira fojiasini mukammal darajada kuchaytiradi.

Xotiram az bahri vaslash borho gardad chu go‘y,
Karda jiddu jahd dar saxtus-samo gardad chu go‘y,
Tokay az nazdi to‘ megashta judo gardad chu go‘y,
Ro‘zu shab dar zeri chavgoni jafo gardad chu go‘y,
Har sare yakdam, ki dar zonuyi dildor nasho‘d.

Mumtoz poetikada tasvirlarning harakatda bo‘lishi shoirning tasavvur kuchi naqadar yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi. Tabibiy ushbu bandda an’anaviy Chavgon va Go‘y talmehi hamda tashbehi orqali yangilik yaratadi. Shoir o‘z xotirasini, yuragini yor vasliga yetishish yo‘lida sarson bo‘lib dumalayotgan koptokga (go‘y) o‘xshatadi. U osmonu falakda tinmay aylanadi, jiddu jahd qiladi, sening yoningdan ayri tushib, xor-u zor bo‘ladi.

Zebunisoning yakuniy satrlari bu azobni eng yuqori nuqtaga yetkazadi:

Ro‘zu shab dar zeri chavgoni jafo gardad chu go‘y...

(Kecha-yu kunduz jafo tayog‘ining ostida xuddi koptok kabi aylanadi). Ya’ni, taqdir, hayot va insonlar yorning jafosi bo‘lib oshiqning boshiga uradilar, oshiqning boshi esa chavgon o‘yinidagi koptok kabi u yoqdan-bu yoqqa uchib yuradi.Tabibiy inson qalbining bu darajadagi qiynoqlarini, sevgining azobli yo‘llarini tasvirlashda shunchaki so‘z o‘yinidan foydalanmaydi. Kimningki boshi yorning tizzasiga bir lahza qo‘yilmas ekan, u bosh chavgon zarbasi ostida qolishga mahkumdir. Shoir insoniy hamdardlik bilan bu azobni o‘z bo‘yniga oladi.

Baski bahri makr subhu shom dorad ertikob,
Xo‘rda ast az-o‘ firib benihoyat shayxu shobb,
Garchi dar zohir ko‘nad az tihiy munkar ijtinob,
Xayf on amomayi zohid, ki bo sad pechu tob,
Rishtayi tasbeh gashtu, tori zunnori nasho‘d.

Ahmad Tabibiy ijodining eng muhim qirralaridan biri- insonparvar sifatida jamiyatdagi adolatsizliklarga, dindagi soxtaliklarga nisbatan murosasizligidir. To‘rtinchi band o‘ta kuchli ijtimoiy-falsafiy ruhga ega. Shoir yozadi:

Baski bahri makr subhu shom dorad ertikob (U shunday bir zohidki, makr va hiyla bilan ertalabdan kechgacha shug‘ullanadi, uning borlig‘ini makr dengizi qoplagan). Bu hiyladan nafaqat yoshlar (shobb), balki hayot ko‘rgan qariyalar ham (shayx) cheksiz aldanganlar. Shoir bu yerda tazod san’atining ikki go‘zal namunasini beradi: subhu shom (ertalab va kechqurun) va shayxu shobb (qariya va yosh yigit). Bu tazodlar zohid firibining butun jamiyatni qamrab olganini ko‘rsatadi. Zohid tashqi tomondan go‘yoki yomon ishlardan, gunohlardan saqlanib yurgandek ko‘rinadi (***Garchi dar zohir ko‘nad...).*** Tabibiy uning boshidagi murakkab eshilgan, yuzlab aylanma pechlari bo‘lgan dabdabali sallasini (amomayi zohid, ki bo sad pechu tob) tilga oladi. Bu salla taqvo belgisi emas, balki odamlarni aldash uchun qilingan tadbirdir. Shundan keyin Zebunisoning yakuniy asosiy satri keladi:

Rishtayi tasbeh gashtu, tori zunnori nasho‘d. Ya’ni, o‘sha zohidning qo‘lidagi ibodat tasbehi iplari oxir-oqibat Allohga yaqinlashtiradigan vosita bo‘lmadi, balki g‘ayridinlarning (majusiylarning) beliga bog‘laydigan, kufr ramzi bo‘lgan “zunnor” ipiga aylanib ketdi. Tabibiy zohidning bu riyakorligini fosh qilar ekan, yangilik yaratuvchi ijodkor sifatida dindagi ikkiyuzlamachilikni qoralaydi va insonning ko‘ngli, uning ichki tozaligi hamma narsadan ustun ekanini ta’kidlsydi. U Zebunisoning o‘z davridagi riyakor saroy mullalariga qarshi aytgan isyonini XIX asr oxirida Xiva hayotiga ham tatbiq etib, shoiraning isyoniga hamfikr bo‘ladi.

Gar to‘ro doram balo boshad qarin, ey dil maranj,
Ya’ni sozad javrho on nozanin, ey dil maranj,
Harchi boshad hosilash peshu pasin, ey dil maranj,
Yoro ki bo g‘ayr karda hamneshin, ey dil maranj,
G‘uncha nasheko‘ft dar gulshan, ki bexoriy nasho‘d.

Bu bandda Tabibiy inson ruhiyatining eng oliy maqomi — sabr va kechirimlilikni tasvirlaydi. Shoir o‘z qalbiga, ko‘ngliga murojaat qilib, har bir misraning so‘ngida ey dil maranj (ey ko‘ngil, ranjima, xafa bo‘lma) deb takrorlaydi. “Agar senga yor tufayli balolar yaqinlashsa ham ranjima, o‘sha nozanin senga tinmay jafo-u jabr qilsa ham ranjima, uning oqibati nima bo‘lishidan qat’iy nazar ranjima! Hatto yor sadoqatsizlik qilib, o‘zgalar (g‘ayrlar, raqiblar) bilan birga o‘tirganini (hamneshin) ko‘rsang ham ranjima!”

Nega ranjimaslik kerak? Ko‘ngil nega bu qadar buyuk sabr sohibi bo‘lishi lozim? Zebuniso uning sababini tabiat qonuniyati bilan izohlaydi. Gulshanda biror g‘uncha tikansiz ochilgan emas. Ya’ni, hayotda go‘zallikka, vaslga, oliy maqsadga erishish hamisha tikanlar (azoblar, raqiblar, jafolar) bilan birga keladi.

Tabibiy bu yerda inson sevgisini shunchaki xudbinlik tuyg‘usi emas, balki yorning har qanday injiqligini, hatto xiyonatini ham kechira oladigan yuksak ma’naviy darajaga ko‘taradi. Shoir bu orqali Zebunisoning hayotiy og‘riqlariga hamdardlik bildiradi, uning hayotida uchragan tikanlarni qonuniyat o‘laroq qabul qilib, shoira ko‘ngliga taskin beradi.

Navbatdagi baytda Tabibiy lirik qahramonning jismoniy o‘limdan keyingi holatini, ya’ni ishqning abadiy tabiatini tadqiq etadi.

On ki bo hijroni mahbubash anduhnok,
Ayb nabvad gar ba tig‘i ta’na megardad halok,
Jismi zorash chun g‘ubor og‘ishta megashta baxok,

Dar qiyomat sar chison orad berun az jaybi chok,
Masnadi har kaski dog‘i lola ruxsoriy nasho‘d.
(Kimki o‘z mahbubining hijronida g‘amgin bo‘lsa, u odam odamlarning ta’na pichoqlari (tig‘i ta’na) bilan halok bo‘lsa ham, buni ayb deb bo‘lmaydi. Uning zaif, ezilgan jismi xuddi g‘ubor, tuproq kabi yerga qorishib ketsa ham, bu sevgi tugamaydi).

To‘rtinchi va beshinchi misralarda o‘limdan keyingi hayot — Qiyomat tasviri keladi. Oshiq qiyomat kuni qabrda tirilarkan, yoqasi chok holda, ya’ni majnunvash, oshiqona qiyofada bosh ko‘taradi. Nega u bunday holatda tiriladi? Zebuniso deydiki, kimning lola yuzli dildor ishqi tufayli ko‘ksiga dog‘ qo‘yilmagan bo‘lsa, qiyomatda oliy taxtga, masnadga erisha olmaydi. Tabibiy ushbu tasvirlar orqali inson ko‘nglini va uning sevgisini o‘lim ham o‘chira olmaydigan buyuk kuch deb biladi. Shoir bu dunyoda xor qilingan, tushunilmagan oshiqlar qiyomatda haqiqiy baxtga va oliy maqomga erishishini aytish orqali, o‘z davrida saroy fitnalari va sadoqatsizliklar ichida yashab o‘tgan Zebunisoning pokiza ruhini ulug‘laydi.

Mahvashonro sarbasar chun tori gesu sho‘d gireh,
Baxti oshiq az jafoyi charx menushad gireh,
Orzuyi vasl dar qalbi jafojo‘y sho‘d gireh,
Solho xun gasht dil chun nofi ohu sho‘d gireh,
Mushki totoriy sho‘d, ammo xoli ruxsori nasho‘d.

Muxammasning eng yuksak cho‘qqisi va shoirning yangilik yaratish mahorati mana shu ettinchi bandda yaqqol ko‘rinadi. Shoir bu yerda **gireh (tugun)** so‘zini har bir misrada turlicha ma’noviy va badiiy jilolarda qo‘llaydi. Mahvashonro sarbasar chun tori gesu sho‘d gireh (Oy yuzli go‘zallarning sochlaring tolalari boshdan-oyoq tugun bo‘ladi) misrasida sochning tuguni — go‘zallik ramzi. Ikkinchi misrada esa oshiqning baxti falakning jafosi tufayli tugun bo‘ladi, ya’ni uning yo‘llari yopiladi. Uchinchi misrada esa vasl orzusi jafo izlovchi qalbida tugun bo‘lib qolib ketadi.

To‘rtinchi misrada esa Tabibiy Sharq poeziyasining eng go‘zal va nodir san’atlari — tashbehi mufassal hamda husni ta’lilni qo‘llaydi: ***Solho xun gasht dil chun nofi ohu sho‘d gireh.*** Kiyik (ohu)ning kindigi ichida qon yillar davomida tugun bo‘lib tursa, u qorong‘ulikda asta-sekin xushbo‘y va qimmatbaho “Totor mushki”ga aylanadi. Tabibiy oshiqning yuragini ana shu kiyik kindigiga o‘xshatadi. Oshiqning yuragi ham yillar davomida hijron dardi va qonidan tugun bo‘lib qoldi. Zebunisoning yakuniy satri bu go‘zallikni yanada yuksaltiradi: U yurak qoni yillar o‘tib dunyodagi eng qimmatli narsaga — Totor mushkiga aylanishi mumkindir, ammo u baribir yor yuzidagi o‘sha bittagina mayda, nafis xolga, uning go‘zalligiga yetolmaydi, uning o‘rnini bosa olmaydi. Tabibiy bu yerda inson iztirobini shunchaki baxtsizlik deb bilmaydi, balki uni ko‘ngilning poklanishi va mushk kabi qimmatli narsaga aylanishi deb tushunadi hamda shoiraning dardini dunyodagi eng xushbo‘y, eng muqaddas narsaga tenglashtiradi.

Bar zamiri jumla mardum sho‘d ayon asrori husn,
Ze-in jihat ushoq megashtand asiru zori husn,
Ey Tabibiy, dar jahon paydost to osori husn,
Har matoyero xaridorist dar bozori husn,
Pir sho‘d Zebunniso, uro xaridore nasho‘d.

Maqolaning xulosasi va kulminatsiyasi mana shu yakuniy band — maqta'dadir. Zebunisobegim o'z g'azalining asl maqta'sida o'zining taqdiri, ayollik va insonlik qismatidan cheksiz yig'lab, "***Pir sho'd Zebunniso, uro xaridore nasho'd"*** (Zebuniso keksayib, qarib qoldi, ammo bu dunyoda uning qadriga yetadigan, uni chin dildan sevadigan biror xaridor topilmadi), deya yozgan edi. Bu satrlarda munosib umr yo'ldosh topolmay, umri tanholik va zindonlarda o'tgan temuriy malikaning haqiqiy fojiasi aks etgan.

Tabibiy dunyoni **bozori husn** (husn bozori) deb ataydi va … *Har matoyero xaridorist dar bozori husn* (Bu dunyo bozorida har qanday arzon, oddiy mato bo'lmasin, uning o'z xaridori bor, hamma narsa sotiladi va sotib olinadi), — deydi. Shoir bu o'xshatish orqali Zebuniso fojiasini yangicha talqin qiladi. Shuningdek, Zebuniso kabi yuksak tafakkur, o'tkir aql va oliy ma'naviyat sohibasining bu dunyoda xaridorsiz (yorsiz, qadrsiz) qolishi — shoiraning aybi yoki uning baxtsizligi emas. Bu — mana shu dunyoning, uning arzon matolar ortidan yuguruvchi tuban odamlarining fojiasidir! Odamlar oddiy narsalarni sotib oladilar, ammo Zebuniso kabi ummon qalbni tushunishga ularning zakovati va ma'naviy kuchi yetmaydi, degan qarashni ilgari suradi. Tabibiy bu orqali shoira ruhiga cheksiz ehtirom ko'rsatadi va o'zini oradan asrlar o'tgan bo'lsa-da, o'sha kutubxonadagi kitob vositasida Zebuniso she'riyatining, uning go'zal qalbi asrorining eng sadoqatli "xaridori" sifatida namoyon etadi. Bu — adabiyot tarixidagi shunchaki ta'sirchan hodisa emas, balki ikki buyuk ijodkorning ma'naviy va insoniy hamdardlik muloqotining eng oliy, eng go'zal namunasidir.

Xulosa. Ahmad Tabibiyning shoira Zebunisobegim g'azaliga bog'langan ushbu forsiy muxammasini noan'anaviy, ya'ni "adabiy xotira va ko'ngil hamdardligi" yuzasidan tadqiq etish quyidagi xulosalarni beradi.

— Maqolaning boshlanishida keltirilgan Firdavsiy satrlari va kutubxona falsafasi isbotlaydiki, asrlar osha ijodkorlar o'rtasidagi aloqa aynan kitob javonlari orqali amalga oshadi. Tabibiy va Zebuniso muloqoti buning yorqin namunasidir.

—Tabibiy muxammasda faqat she'riy shakl namoyish etuvchi saroy shoiri emas, balki Zebunisoning qismatidagi tanholik va tasavvufiy anduhni chuqur tushungan insonparvar shoir sifatida bo'y ko'rsatadi. U o'z misralarida shoira dardi uchun mantiqiy va tasviriy zamin hozirlaydi.

—Shoir qo'llagan chavgon va go'y tashbehi hamda nofi ohu (kiyik kindigidagi qonning mushkka aylanishi) singari murakkab poetik vositalar asarning mazmuniy pafosini, insoniy iztirob qiymatini maksimal darajada oshirishga xizmat qilgan.

—Maqta' qismidagi "bozori husn" ko'chimi orqali Tabibiy shoiraning bu dunyoda munosib qadrlanmaganiga hamdardlik bildiradi, dunyoning bevafo tabiatini qoralab, o'zini shoira ruhiyatining chinakam qadrlovchisi (xaridori) deb e'lon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zebuniso. Devon. (Forsiy matn, o'zbekcha tarjima va so'zboshi muallifi: J.Kamolov). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
2. Ahmad Tabibiy. Majmuai shoironi Tabibiy. Xorazm ma'rifatparvarlari merosi. – Toshkent: Fan, 1998.
3. Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. 20 jildlik. T.3. – Toshkent: Fan, 1988.
4. Turg'un Fayziyev.Temuriy malikalar (Tarixiy ocherklar). – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. – 112 b.